



Tarbiya - Pedagogning asosiy funksiyasi sifatida

**Aliyeva Dilafuz
Muxtarovna**

KDU dotsent

Sh.A.Irmatov

Katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning yetuk, komil bo'lib yetishib chiqqshining asosiy omili bu uning tarbiyasi ekanligi hamda bu tarbiyaning bir negizi oila biri esa pedagog o'qituvchi ekanligi takidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, didaktika, siyosatshunoslik, huquqshunoslik

Kirish. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar ora-sida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

- Pedagogika haqida ilk fikrlar [falsafa](#), diniy ilmlar tizimida, [siyosatshunoslikda](#), [huquqshunoslikda](#) [adabiyotda](#) rivojlandi.
- [XII-asrning](#) boshida alohida ilm bo'lim ajralib chiqdi. [F.Bekon](#) va [Ya.Komenskiylarning](#) kitoblarida pedagogikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shilgan. Ularning izidan [D.Lokk](#), [Jan Jak Russo](#), [I.Pestalotssi](#), [I.Gerbard](#), [A.Disterverglar](#) o'z hissalarini qo'shadi. O'rta asrlarda yoshlarga bilim berish va tarbiyalash diniy markazlarning qo'lida bo'ldi. Keyinchalik [gil'deylik](#) maktablar ochila bo'shalndi. [Konfutsiy](#) (551 d.n.e — 479 d.n.e)
- [Kvintilian](#) (35 n.e.- 96 n.e.)

- [Erazm Rotterdamskiy](#) (1465 — 1536)
- [Yan Amos Komenskiy](#) (1592 — 1670)
- [Djon Lokk](#) (1632 — 1704)
- [Mixail Vasilevich Lomonosov](#) (1711-1765)
- [Iogann Genrix Pestalotssi](#) (1746-1827)
- [Fridrix Fryobel](#) (1782 — 1852)
- [Adolf Disterveg](#) (1790 — 1866)
- [Nikolay Ivanovich Pirogov](#) (1810 — 1881)
- [Gerbert Spenser](#) (1820 — 1903)

Metodologik tahlil

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlari o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarni shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy-pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va akliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'limtarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlari namoyon etadi.

Hulosa. Aytish kerakki, marksistik falsafa barcha ijtimoiy hodisalar kabi pedagogikani ham o'zi o'ylab topgan ijtimoiy-iqtisodiy qoliplarga muvofiq tarzda izoxlashga urinib keldi. Shundan kelib chiqib pedagogikani partiyaviy-sinfiy xususiyatga ega deb qaraldi va turli sinflarning pedagogikasi bir-biridan jiddiy farq qiladi hamda o'zaro qaramaqarshi bo'ladi, deb izoxladi. Shuning-dek, marksistik yondashuvga ko'ra, pedagogika ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga muvofiq bo'ladi, ya'ni tuzum o'zgarishi bilan tubdan o'zgarib, oldingi pedagogik tizim to'liq inkor etiladi. Holbuki, fan insoniyat tarixi marksizmda aytilgan besh formatsiyadan iborat emasligini ko'rsatdi. Binobarin, shunga moslab chiqarilgan xulosalarning sun'iy va noilmiy ekanligi ayon bo'ldi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Xasanova M., Ubaydullayev S. Communicative language teaching and learning //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 1. – с. 125-128.
2. Madina X. Zamonaviy Ta'lim muhitida ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishning ingliz tilini o'qitish samaradorligini ta'minlash asoslari //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – т. 3. – №. 3. – с. 27-30.
3. Xasanova M., Usmonova M. Techniques, tools and organizational forms of developing educational strategies //conferencea. – 2023. – с. 22-24.
4. Dilafruz A. The Practice-oriented approach to learning in europe //conferencea. – 2023. – с. 79-80.
5. Aliyeva D., Aliyeva S. Future of modern education system //conferencea. – 2023. – с. 37-39.
6. Muhtarovna A. D. Modern pedagogical innovations in teaching foreign languages for defectologists //euro-asia conferences. – 2021. – т. 3. – №. 1. – с. 168-170.
7. Sayyora, Alimsaidova. "IMPROVEMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 313-316
8. Алимсаидова С.А. Дидактические принципы при обучении неродному языку Международный научный журнал «Молодой учёный». – Казань, 2015. – №23 часть X. С. 1062-1063
9. Xasanova M. ANALYSIS OF THE PEDAGOGICAL MECHANISMS OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE FORMATION OF THE ACTIVITY OF TEACHING THE WORLD ENGLISH LANGUAGE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 11. – №. 4. – С. 554-556.
10. Madina X. et al. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar vositasida xorijiy til o'qitish metodikasini takomillashtirish //Science Promotion. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 222-225.
11. Xasanova M. THE PRACTICE OF USING AN ELECTRONIC COPY INSTEAD OF A TRADITIONAL METHOD //Conferencea. – 2023. – С. 119-122.
12. Aliyeva D., Alieva S., Sharobidinov M. PEDAGOGICAL MECHANISMS OF ENSURING EFFICIENCY OF ENGLISH TEACHING //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 19-23.
13. Aliyeva D. SYSTEMIC AND STRUCTURAL FEATURES OF ENGLISH AND RUSSIAN PHONETIC TERMINOLOGY //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 14. – С. 141-144.